

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O`ZBEKISTONDA EVAKUATSIYA JARAYONLARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR (OLIY TA'LIM MUASSASALARI MISOLIDA)

Ismoil Salomov

Qarshi davlat universiteti doktoranti
ismoilsalomov6661@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ikkinchiji jahon urushi yillarida amalga oshirilgan evakuatsiya jarayonlari (asosan, oliy o`quv yurtlari va ilmiy tashkilotlar) haqida ma`lumot berilgan. Evakuatsiya jarayonlarida vujudga kelgan muammolar va ularning bartaraf etilishi, ko`chirib keltirilgan oliy ta`lim muassalari va tashkilotlari uchun o`quv binolari va talabalar turar-joylarining ajratilishi, o`quv jarayonlarining urush talablari asosida qayta qurilganligi, ko`chirilgan oliy ta`lim muassalarining mahalliy oliy o`quv yurtlari bilan birlashtirilishi haqidagi ma`lumotlar arxiv materiallari yordamida ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so`zlar: Evakuatsiya, institut, inventarizatsiya, auditoriya, universitet, oliy ta`lim

KIRISH

Barchamizga ma`lumki, urush har doim insoniyat uchun talofatlarga boy bo`lgan jarayon bo`lib kelgan. Unda kimdir ozodligini, kimdir o`z Vatanini, yana kimdir o`z oilasini, farzandlarini, yo`qotadi. Inson paydo bo`lgandan beri sodir bo`lgan urushlar uchida eng katta talofat keltirganlari, albatta, Birinchi va Ikkinchiji jahon urushlaridir. Ayniqsa, Ikkinchiji jahon urushi sodir bo`lgan hududlarda mahalliy aholi vakillari anchagina og`ir sinovlarni boshidan o`tkazdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

1941-yil 22-iyunda xoinlarcha Gitler Germaniyasining SSSR hududiga bostirib kirishi (1939-yil 23-avgustda bu ikki davlat o`rtasida 10 yilga mo`ljallangan “O`zaro hujum qilmaslik to`g`risida” bitim bo`lishiga qaramasdan¹) oqibatida urush harakatlari SSSR hududiga va uning tarkibida mavjud bo`lgan davlatlarga ko`chadi².

¹1939-yil 23-avgustdan 24-avgustga o`tar kechasi tuzilgan Germaniya va SSSR o`rtasida “O`zaro hujum qilmaslik to`g`risida”gi pakt “Molotov-Ribbentrop pakti” nomi bilan ham tanilgan

²Мельюхов М.И. Упущенный шанс Сталина. Советский Союз и борьба за Европу: 1939-1941. — М.: Вече, 2000. Ст.12

Juda qisqa vaqtda mamlakat hayotini urush talablariga moslashtirish, deyarli barcha sohani g`alaba uchun safarbar etish uchun SSSR va uning tarkibida mavjud bo`lgan 15 ta respublikadagi barcha salohiyatlari kadrlar, jumladan, olimlar, tadqiqotchilar, mutaxassislarning yetuk aqliy salohiyatlaridan keng foydalanildi. Ana shu suronli yillarda SSSR intellegensiyasini saqlab qolish, ishlab chiqarish sanoatini dushmanga boy bermaslik, fan-texnika yutuqlarini va uning rivojini asrab qolish uchun evakuatsiya, ya`ni urush sodir bo`lish xavfi past bo`lgan hududlarga ularni ko`chirish ishlari amalga oshirildi.

“Sizlarga ma`lumki, keyingi yillarda xalqimizning buyuk G`alabaga qo`shgan ulkan hissasini har tomonlama o`rganish va targ`ib etish bo`yicha yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada ilgari yopiq bo`lgan arxiv hujjatlari ochilgani, sobiq Ittifoq respublikalari va chet eldagisi arxiv tashkilotlari, muzey va fondlar, olim va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaygani muhim ahamiyatga ega bo`lmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Ikkinchchi jahon urushi to`g`risidagi bor haqiqatni aniqlash va xalqimizga yetkazish, ajodolar xotirasini abadiylashtirish bo`yicha hali ko`p ish qilishimiz kerak. Yurtimizdagi har bir qishloq, mahalla va ta`lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar, keng jamoatchiligidan urush ishtirokchilariga doir materiallarni to`plash va targ`ib etishda yanada faol ishtirok etadilar, deb ishonaman. Ayniqsa, zamonaviy ilm-fanlarni, xususan, milliy tariximizni katta qiziqish va mehr bilan o`rganayotgan yoshlарimizdan bu borada yangi tashabbus va harakatlarni kutib qolamiz”³.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Urushning dastlabki bosqichida, O`zbekistonga evakuatsiya qilingan oliy ta`lim muassasalari va tashkilotlar haqida ma`lumotlar quyidagicha:

1. Moskva arxitektura instituti O`zbekiston hududiga evakuatsiya qilinib, tegishli institut bilan biriktirilgan;
2. Leningrad elektrotexnika instituti (32 nafar professor-o`qituvchilar, 153 nafar talabalari bilan) O`rta Osiyo sanoat institutiga joylashtirilishi ko`zda tutilgan;
3. Leningrad qurilish-muhandislik instituti (27 nafar professor-o`qituvchilar, 236 nafar talabalari bilan) Moskva arxitektura instituti bilan birga joylashtirilishi taxmin qilingan;
4. Leningrad to`qimachilik instituti (9 nafar professor-o`qituvchilar, 102 nafar

³ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Xotira va qadrash kuni”ga bag`ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. T. Yangi O`zbekiston. № 94 (350), 2021-yil 10-may.

talabalari bilan) Toshkent tekstil institutiga joylashtirilishi ko`zda tutilgan;

5. Leningrad kino-muhandislar instituti (15 nafar professor-o`qituvchilar, 122 nafar talabalari bilan) Samarqanddagi kino-foto ilmiy-tadqiqot instituti bilan birlashtirilishi ko`zda tutilgan;

6. Leningrad rejalahshtirish va loyihahshtirish instituti (5 nafar professor-o`qituvchilar, 101 nafar talabalari bilan) Samarqanddagi Xalq xo`jaligi instituti bazasiga joylashtirilishi ko`zda tutilgan⁴;

7. Moskva kartografiya va geodeziya instituti, Kimyo-texnologiya instituti, Muhandislik-iqtisodiyot instituti; To`qimachilik instituti, Irrigatsiya instituti, Zootexnika va Qishloq xo`jaligi muhandislari instituti;

8. Odessa Sanoat va qishloq xo`jaligi iqtisodiyoti muhandislari instituti, Suv transporti muhandislari instituti, Aloqa instituti;

9. Xarkov Temir yo`l transporti muhandislari instituti, Kimyo-texnologiya, Pedagogika, Qishloq xo`jaligi, Qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash institutlari;

10. Voronej aviatsiya instituti;

11. Moskva, Kiyev va Xarkov san`at institutilari va boshqalar⁵.

Ko`chirib keltirilgan oliy ta`lim muassasalarini O`zbekiston hududida joylashtirish uchun tezkor choralar ko`rildi. Ya`ni o`qituvchi-professorlar va talabalarning oz sonli qismi bilan kelgan universitetlar vaqtincha Toshkentdagি o`zlariga mos ixtisosga ega institutlar bilan birlashtirildi. Masalan, yuqorida Leningraddan ko`chirilgan institutlar ixtixosligiga ko`ra O`zbekistondagi oliy ta`lim muassasalari bilan birlashtirilganini ta`kidladik. Xuddi shunday boshqa oliy ta`lim muassasalari ham shu tartibda joylashtirildi. Masalan, Kiyev sanoat instituti O`rta Osiyo sanoat instituti bilan, Xarkov temir yo`l muhandislari instituti Toshkentdagи tegishli institut bilan birlashtirildi va hokazo. Qolganlari Toshkentdagи universitetlar, institutlar va ularning yotoqxonalari binolariga joylashtirildi. Bu esa qo`shimcha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi⁶. Quyida birgina Varonej aviatsiya intitutini Toshkentda joylashtirish uchun qancha hududdan joylar ajratilganligini, binolar bo`shtib berilganligini, binolarini bergen institutlarning o`zi esa 2-yoki 3-smenada o`quv jarayonini amalga oshirganligini ko`rishimiz mumkin.

Varonej aviatsiya instituti direktori prof. Fabrikant O'zSSR Xalq Maorif Komissarligi raisi Ulibeshevning so`rovnomasiga javoban, Varonej aviatsiya universiteti egallab turgan binolar haqida 1942-yil 10-iyun sanasida ma`lumot bergen. Unga ko`ra, Varonej instituti uchun Ko`ybiskeva ko`chasida o`quv binosi uchun 2958m² yer maydoni bilan ajratilgan. Karl Marks ko`chasidagi Univermagning

⁴ Национальный Архив Узбекистана. Фонд-Р-837, опис-32. Ед. хр. 3516. ст-2

⁵ НАУз. Фонд Р-837, опис-32. Ед. хр. 3516. ст-39-40.

⁶ НАУз. Фонд Р-837, опис-32 Ед.хр. 3233, ст-17-19

2-qavatidan 800m² yer maydoni berilgan bo`lsa, O`zbekiston ko`chasidagi Moliya-iqtisodiyot instituti laboratoriya uchun 566m², talabalar turar-joyi uchun 585m² yer maydonini ajratadi. Talabalar turar-joyi uchun Taxtapul ko`chasidan 138m², Hamza ko`chasidan 65m², Olmazor ko`chasidan 81m², Kommunistlar ko`chasidan 90m², Chig`atoy ko`chasidan esa 65m² yer maydonlari ajratilgan. Jami yer maydoni esa 5348 m² ni tashkil etadi, shundan 4324 m² yer maydoni o`quv binolari uchun, 1024 m² yer maydoni esa turar-joy binolari uchun ajratilgan⁷.

Evakuatsiya jarayonlari ketayotgan bir pallada barcha ma`suliyat O`zbekiston SSR Xalq maorif komissarligi zimmasiga tushdi. Xususan, I.V Stalin nomidagi Leningrad to`qimachilik kombinatidan evakuatsiya qilinganlar uchun va yangi o`quv yili qabuli uchun qo`shimcha xonalar va binolar ajratilishi bo`yicha ishlarga O`zbekiston SSR Xalq Maorif komissarligi boshchilik qildi.

Bundan tashqari Toshkent temiryo`l muhandislari instituti boshlig`i o`rtoq Petrukovinga yangi o`quv yili boshlangunga qadar evakuatsiya qilingan va yangi o`quv yilda qabul qilinadigan talabalarni joylashtirish uchun turar-joylar qurilishini tezlashtirish choralarini ko`rish ta`kidlandi.

O`zbekiston SSR Sog`liqni saqlash xalq komissarligi va shahar ijroiya qo`mitasiga Toshkent tibbiyot instituti yotoqxonalari va evakuatsiya qilingan shifoxonalardan tashqari aholi egallab turgan binolarni zudlik bilan bo`shatish bo`yicha topshiriq berildi.

Toshkent qishloq xo`jaligi institutiga vaqtinchalik bino berilishi rad etildi.

Irrigatsiya va mexanizatsiya institutiga bino ko`zdan kechirulgunga institut uchun yangi bino berilishi haqidagi savol ochiq qoldirilishi ta`kidlandi.

I.V Stalin nomidagi Odessa un maydalash va elevator muhandislari institutiga yaxshi dars jarayonlarini amalga oshirishi uchun o`rta maktablardan 8-10 ta auditoriya taqdim etildi⁸.

Xarkov qishloq xo`jaligi instituti Kattaqo`rg`on shahriga joylashtirildi⁹. Toshkent Moliya-iqtisod instituti¹⁰ evakuatsiya qilingalar uchun 250 o`rinli turar-joy binolari, 14 ta auditoriyasini va ma`muriy boshqaruv apparati uchun 6 ta xonasini ajrattdi¹¹. 1942-yil 9-iyunda O`rta Osiyo davlat universiteti Pushkin ko`chasi, 66-uyda joylashgan energetika fakultetining 3664m² hajmdagi yerto`lasini gospital oshxonasi uchun topshirdi. Zarbdor ko`chasidagi talabalar turar-joyining 600 m² yer maydoni Moskvadan ko`chirib keltirilgan oyna ishlab chiqaradigan fabrikaga

⁷ НАУз. Фонд Р-837, опис-32. Ед. хр. 3516. ст-7

⁸ НАУз. Фонд Р-837, опис-32. Ед. хр. 3516. ст-3

⁹ НАУз. Фонд Р-837, опис-32. Ед. хр. 3516. ст-15

¹⁰ Бу paytda institut rektori Krasotkin edi

¹¹ Там же. ст-16

berildi¹². Farg`ona viloyati ijroiya qo`mitasi 1942-yil 7-iyulda Moskva Sharqshunoslik instituti uchun binolar ajratish bo`yicha qaror qabul qildi¹³.

1942-yil 3-avgustda SSSR ichki ishlar xalq qo`mitasining Avtomobil yo`llari bosh boshqarmasi (ГУШОСДОРА НКВД СССР¹⁴)ning V.M. Molotov nomidagi Avtomobil yo`llari instituti Yangiyo`l tumanadagi o`rta maktablarning binolariga joylashtirildi¹⁵.

1942-yil 4-iyulda Lenin ordega ega bo`lgan Mendeleyev nomidagi Moskva kimyo-texnologiyalar instituti Qo`qon shahriga joylashtirildi. Unga 40m² lik 8 ta auditoriya va 200 o`rinli talabalar turar-joyi taqdim etildi¹⁶.

1942-yil 11-iyulda Samarqand tibbiyat institutining bo`sh joylari Moskva davlat rejallashtirish va loyihalashtirish institutiga hamda Odessa suv-transporti muhandislari institutiga berildi¹⁷.

Qayta ta`mirlangan Respublika oliy o`quv yurtlarining ko`pgina binolari harbiy maktablar va yarador askarlar uchun shifoxonalarga berilganligi sababli, ko`chirib keltirilgan oliy ta`lim muassasalarini joylashtirishni yanada murakkablashtirdi. Talabalar juda tor va qiyin sharoitda tez-tez, ya`ni ikki yoki uch smenada o`qishga majbur bo`ldilar.

1942-yil 5-mayda SSSR Xalq Komissarlari Kengashi "1942-yilda oliy o`quv yurtlariga qabul qilish rejasi va oliy o`quv yurtlarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to`g`risida" Farmonini chiqardi. Unga ko`ra, 1942-yilgi qabul jarayonida 1941-1942-o`quv yilida o`rta maktablarni bitirgan o`quvchilar oliy o`quv yurtlariga kirish uchun imtihonlardan ozod qilindi. Hujjatda qayd etilishicha, 1941-1942-yilgi o`quv yilida aynan "a`lo" va "yaxshi" baholari bo`lgan o`quvchilarga universitetga kirish huquqini qo`lga kiritdilar.

XULOSA

Xuddi shu Farmonga binoan, Ittifoqdosh Respublikalar Xalq Komissarlari Kengashlari 1942-yil 15-maygacha "Evakuatsiya qilingan korxonalar, kasalxonalar, oliy ta`lim muassasalari va harbiy tashkilotlarni joylashtirish uchun olib qo`yilgan o`quv binolari va yotoqxonalar o`rniga barcha Oliy o`quv yurtlarini kerakli yotoqxona va o`quv binolari bilan ta`minlashi kerak edi"¹⁸. Universitetlarda darslarni to`xtatish, talabalar va o`qituvchilarni turli ishlarga jalb qilish, shuningdek SSSR

¹² Там же. Ст-19

¹³ Там же. Ст-24

¹⁴ Ushbu tashkilot SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1936-yil 3-martdagi qarori bilan tuzilgan

¹⁵ Там же. Ст-26

¹⁶ Там же. Ст-29

¹⁷ Там же. Ст-30

¹⁸НАУз. Фонд Р-837, опис-32. Ед. хр. 3516. ст-18

Xalq Komissarlari Kengashining ruxsatisiz o`quv binolarini, yotoqxonalarni inventarizatsiya qilish va jihozlarni tanlash, ularni o`zgartirish ta`qiqlandi.

Evakuatsiya jarayonlari tig`iz pallada tezkorlik bilan amalga oshirildi. O`zbekiston SSR ga qilingan evakuatsiya ishlari natijasida SSSR intellegensiyasining asosiy qismi va tajribali mutaxassislar qatlami saqlab qolindi. O`zbekiston hududida joylashgan oliy o`quv yurtlari va texnikumlari, o`qituvchilar tayyorlash institutlari, o`rta maktablar o`zlari o`qib turgan o`quv binolari va talabalar turar-joylarini ko`chirib keltirilganlarga berib o`zbek xalqining bag`rikeng ekanligini, qiyin vaziyatda yordam qo`lini cho`zishini yana bir bor isbotladilar.

REFERENCES

1. Узбекский Национальный Архив фонд Р-837, опис-32, ед. хр. 3516.
2. Узбекский Национальный Архив. Фонд Р-837, опис-32. Ед. хр. 3233.
3. Рачинская Е.В. Народное образование в Узбекистане в годы Великой Отечественной войны. Средняя и высшая школа. Ташкент, 1963
4. Мельтюхов М.И. Упущеный шанс Сталина. Советский Союз и борьба за Европу: 1939-1941. — М.: Вече, 2000.
5. Воскобойников Э. А. Узбекский народ в годы Великой Отечественной войны Т., 1947
6. Yangi O`zbekiston. № 94 (350), 2021-yil 10-may